



RESPUBLIKADA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROXIZMATLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH VA TASHKIL ETISH

PhD Djurayeva Dilnoza

Buxoro davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-4331-4849

3ddjuraevad1990@gmail.com

Tohirova Shaxrizoda

Buxoro davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-1309-432X

tokhirova@icloud.com

prof. **Song Jichung**

Daegu Haany universiteti

ORCID: 0000-0001-9051-0554

prenedias@gmail.com

Annotatsiya. Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsion xizmat ko'rsatish jarayonlarini isloh qilishda xizmatlar sohasidagi subyektlarning innovatsion faoliyati sohasida mualliflarning mavjud nazariy metodologik tadqiqotlariga tayangan holda xizmatlar innovatsiyalarning tashkiliy va iqtisodiy yangiliklar bilan bog'liq butun doirasini ma'lum bir tizimga keltirish va ularning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan asosiy qonuniyatlarini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Biroq tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalar rolini yanada chuqurroq tushunish uchun innovatsion faoliyatning ushbu o'ziga xos obyekti qanday vujudga kelishi va rejalashtirilishini tushunib olish zarur.

Kalit so'zlar: innovatsiya, qishloq xo'jaligi, tashkiliy yangiliklar, iqtisodiy yangiliklar, rejalashtirish, obyekt, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, yangilik.

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ АГРАРНОЙ ЭКОНОМИКИ В СФЕРЕ ВЫРАЩИВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ

PhD Джуряева Дилноза

Бухарский государственный университет

Тахирова Шахризода

Бухарский государственный университет

проф. **Сон Джичун**

Университет Дэгу Хаань

Аннотация. В процессе реформирования процессов инновационного сервисного обслуживания хозяйственного производства в республике мы попытаемся систематизировать весь спектр организационно-экономических аспектов инновационной деятельности в контексте разработанной автором теоретико-методологической базы развития инновационной деятельности субъектов поддержки и развития обществ, ответственных за сельскохозяйственное производство.

Для дальнейшего углубления роли организационно-экономических инноваций необходимо понимание того, как возникает и структурируется этот специфический объект инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновация, сельское хозяйство, организационные новости, экономические новости, планирование, предприятие, инновационный процесс, инновационная деятельность, новшество.

FORMATION AND ORGANIZATION OF AN INNOVATIVE AGRICULTURAL SERVICES ECONOMY IN THE GROWING OF AGRICULTURAL PRODUCTS IN THE REPUBLIC

PhD **Dilnoza Djurayeva**

Bukhara State University

Tohirova Shaxrizoda

Bukhara State University

prof. **Song Jichung**

Daegu Haany University

Abstract. In the process of reforming the processes of innovative service provision in the production of agricultural products in the republic, based on the existing theoretical and methodological research of the authors in the field of innovative activity of service entities, we will try to bring the entire range of service innovations related to organizational and economic innovations into a certain system and identify the main laws that cause their emergence. However, in order to more deeply understand the role of organizational and economic innovations, it is necessary to understand how this specific object of innovative activity arises and is planned.

Keywords: innovation, agriculture, organizational news, economic news, object, innovation process, innovative activity, novelty.

Kirish.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki mamlakat eksport salohiyatini oshirish, hududlarda bandlikni yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Respublikamiz hududlarining 60 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi faoliyatiga yaroqli bo'lib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 2023-yilda 25,5 foizni tashkil etdi (O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari). So'nggi yillarda agrar sohada ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, mahsulot yetishtirish samaradorligi va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetgani yo'q.

Global miqyosda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va ekologik barqarorlik masalalarining dolzarblashuvi qishloq xo'jaligi sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, innovatsion agroxizmatlar tizimi zamonaviy agroishlab chiqarishning ajralmas bo'g'ini sifatida shakllanmoqda. Bu tizim nafaqat ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va raqamlashtirish, balki mahsulot sifati, hosildorlik, logistika samaradorligi hamda marketing mexanizmlarini ham yangi bosqichga olib chiqishini nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion agroxizmatlar deganda qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalar, raqamli boshqaruv vositalari, ilmiy izlanishlar natijalari va yangi xizmat ko'rsatish modellari majmuasidan foydalanish tushuniladi. Innovatsion agroxizmatlar nazariy jihatdan bir nechta ilmiy yondashuvlarning kesishgan nuqtasida shakllangan bo'lib, ularning rivoji qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, innovatsion menejment, xizmatlar iqtisodiyoti va barqaror rivojlanish konsepsiyalariga tayangan. Ushbu yondashuvlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib,

agroxizmatlar tizimini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Texnologik modernizatsiya yondashuvi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga yuqori samarali texnika va texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan "qiymat zanjiri" nazariyasi doirasida, texnologik modernizatsiya ishlab chiqarishning har bir bosqichida qo'shimcha qiymat yaratishning muhim omili sifatida qaraladi. Innovatsion agroxizmatlar doirasida texnologik modernizatsiya quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

Tomchilatib sug'orish va lazer yordamida yer tekislash texnologiyalari;

Aqlli issiqxona va agrorobotlar;

Energiya tejankor va ekologik toza texnika vositalari.

2. Innovatsion tizimlar yondashuvi. Klerkx va Leeuwis (2009) tomonidan ilgari surilgan agroinnovatsion tizimlar nazariyasi innovatsiyalarni samarali rivojlantirish uchun davlat, xususiy sektor, ilmiy muassasalar va fermer xo'jaliklari o'rtasida kuchli hamkorlikni talab qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, innovatsion agroxizmatlar faqat texnik vositalar majmuasi emas, balki:

innovatsiyalarni yaratish (R&D) tizimi;

ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish;

innovatsion mahsulot va xizmatlarni tijoratlashtirish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.

3. Xizmatlar iqtisodiyoti yondashuvi. Grönroos (1990) xizmatlar iqtisodiyotini ishlab chiqishda xizmat ko'rsatish sifatining ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Qishloq xo'jaligi sohasida xizmatlar iqtisodiyoti yondashuvi shuni anglatadiki, agroxizmatlar ishlab chiqaruvchiga nafaqat texnika yoki vosita yetkazib berish, balki:

konsalting va trening xizmatlari;

marketing va logistika yechimlari;

moliyaviy va sug'urta xizmatlarini ham qamrab oladi.

4. Barqaror rivojlanish yondashuvi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) konsepsiyasi asosida qishloq xo'jaligida ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari uyg'un qo'llanishi kerak. FAO (2017) ta'kidlaganidek, innovatsion agroxizmatlar:

suv va energiya resurslarini tejash;

biologik xilma-xillikni saqlash;

atmosfera ifloslanishini kamaytirishga xizmat qilishi kerak.

5. Raqamli transformatsiya yondashuvi. OECD (2020) tahlillarida qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, AI) agroxizmatlar samaradorligini tubdan oshiradi. Bu yondashuvga ko'ra:

dronlar yordamida ekin maydonlarini kuzatish;

sun'iy intellekt orqali hosil prognozlarini hisoblash;

blokcheyn asosida ta'minot zanjirlarini shaffoflashtirish — innovatsion agroxizmatlarning kelajakdagi asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion agroxizmatlar konsepsiyasi dunyo miqyosida 1990-yillardan boshlab keng tadqiq etila boshlagan. Dastlabki yondashuvlar ko'proq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida servis xizmatlarini mexanizatsiyalashga qaratilgan bo'lsa (Timmer, 1993), 2000-yillardan boshlab raqamli texnologiyalar va bilim iqtisodiyoti elementlarini qamrab ola boshladi.

Porter (1990) innovatsion xizmatlar qiymat zanjiri nazariyasida qishloq xo'jaligi uchun xizmat ko'rsatish tizimlarini qo'shimcha qiymat yaratishning asosiy bo'g'ini sifatida baholaydi.

Klerkx va Leeuwis (2009) esa innovatsion agroxizmatlarni "agroinnovatsion tizim" tarkibiy qismi sifatida ko'radi va ularning muvaffaqiyati uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar hamkorligini shart deb hisoblaydi.

FAO (2017) hisobotida innovatsion agroxizmatlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki ekologik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida ko'riladi.

Isroil va Niderlandiya tajribasi (OECD, 2020) shuni ko'rsatadiki, yuqori texnologiyali agroxizmatlar hosildorlikni 30–40% oshirgan, eksport hajmini esa 25% ga kengaytirgan.

O'zbekistonda bu yo'nalish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Jo'rayev (2021) innovatsion agroxizmatlarni qishloq xo'jaligi klasterlari asosida rivojlantirishni taklif etadi, Tojiboyev (2022) esa ularning raqamli agroplatformalar bilan integratsiyasi bo'yicha metodologik asoslarni ishlab chiqqan.

Bugungi sharoitlarda faqat innovatsion, aynan ilmiy, yuksak texnologiyali, malakali ishchi kuchida ro'yobga chiqqan bilimlarga asoslangan iqtisodiyotgina raqobatbardosh bo'la olishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining tarkibida ko'rsatilganidek, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 50,0 foizdan oshadi. Jahon bankining hisob kitoblariga ko'ra, xizmat daromadlari jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 70 foizini tashkil etadi. Xizmat ko'rsatish sohasida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar orasida bu ko'rsatkich Lyuksemburgda 88,3 foiz, Kiprda- 87,4 foiz, Maltada - 85,5 foiz, Daniyada- 76,3 foiz, Ispaniyada- 74,8 foiz, Buyuk Britaniyada-79,6 foiz, Amerika Qo'shma Shtatlarida esa 77,6 foizni tashkil etadi.

Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xizmatlar sohasining tezkor o'sish suratlarini ta'minlash, mazkur yo'nalishda tadbirkorlikni yanada qo'llab quvvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek xizmatlar sohasi korxonalari faoliyatini balansli rivojlantirish va diversifikatsiyalashni ta'minlash, ular ko'rsatadigan xizmatlarning raqobatbardoshligi va sifatini oshirish bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Amalga oshirgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda servis sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 61 foizni tashkil etadi. Mamlakatimizda bu ko'rsatkich 36 foizdir. Lekin 86 foiz qo'shilgan qiymat shu sohada yaratiladi. Respublikamiz miqyosida ushbu tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak, Qaraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2 barobar past.

Marshall tomonidan raqobatning texnologik konsepsiyasiga asos bo'lib, monopoliyaning paydo bo'lishining sabablarini ba'zi „tabiiy“ holatlar mavjudligi bilan tushuntiradi. U tomonidan iqtisodiyot va ishlab chiqarish konsepsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. „Ishlab chiqarishni kengaytirish uning raqobatbardosh ustunligini tezda oshiradi va o'z mahsulotlarini sotish narxini pasaytiradi“.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot natijalarida ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni subyektlarida innovatsion menejmentning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiyan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish masalalariga davlatimiz rahbarining alohida e'tibor qaratgani tufayli yuqorida qayd etilgan yutuqlarga erishish imkoni paydo bo'ldi.

Har qanday davlatning rivojlanish darajasini asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning ta'lim va fan tizimlarining raqobatbardoshligidir. Bu omillar iqtisodiyotning innovatsion xususiyatini belgilaydi, shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda bu sohalarning uzluksiz rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi. Bu esa nafaqat fan va ta'limga doimiy sarmoya kiritishni, balki ularning yangi vazifalarga nisbatan moslashuvchan bo'lishi va zamonaviy talablarga javob berish lozim bo'lgan tuzilmasini to'g'ri tashkil etishni ham talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va

fan tizimlari yangi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik muammolarga moslasha olishi kerak. Bundan tashqari, innovatsion faoliyat jarayonida tasodiflar muhim rol o'ynaydi, chunki, tashkiliy iqtisodiy innovatsiyalar sohasida bitta yangilikning o'zi bir nechta mustaqil yo'ldan borishi mumkin. Texnologiyalar sohasidagi bo'lgani kabi, tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish sohasida ham innovatsion jarayon tasodifiy omillar va to'planib borish tabiatiga ega bo'lgan omillarning o'zaro o'yinlariga yo'naltirilgan deb ta'kidlash mumkin.

Aytaylik, ko'rib chiqilayotgan jarayonda tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarda ham kichik ham katta o'zgarishlar ahamiyatli. O'zgarishlarning bu ikki sinfiga ularning bir biridan jiddiy farq qiladigan paydo bo'lish o'rtacha tezliklari xosdir. Tashkiliy tuzilmalardagi katta o'zgarishlar kichik o'zgarishlar zanjiri bilan qoplanmaydigan bo'lsa, tizimning siklik xulq atvori sababchisiga aylanishi mumkin, chunki amaldagi kumulyativ mexanizm ularning ta'siri ular vujudga kelgan vaqt oralig'idan tashqariga ham tarqalishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tasodifiy o'zgarishlarning vaqt bo'yicha klasterlarga markalashuvi aynan qishloq xo'jaligida ro'y berishi mumkin. Kumulyativ mexanizm ta'siri ostida klasterlar birlashish tendensiyasini his etadi va bu tariqa to'yinish darajasining nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Demak, klasterlardan har birining ta'siri bu o'zgarishlar ro'y bergan vaqt doirasidan tashqariga ham tarqaladi.

Bir so'z bilan aytganda, jiddiy tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalar miqyosi va ta'sir darajasi bo'yicha kichikroq innovatsiyalar to'planishining natijasi hisoblanadi, ya'ni texnologik sikllarda bo'lgani kabi, obyektiv ravishda tashkiliy iqtisodiy rivojlanish sikllarining ma'lum bir ketma-ketligi vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsiyalarni boshqarish va tartibga solishda dunyo mamlakatlari amaliyotida mavjud bo'lgan tajribalar, usullar va mezonlarni o'rgangan holda, xizmatlar sohasini mavjud bo'lgan tajribalar, usullar va mezonlarni o'rgangan holda, xizmatlar sohasini innovatsion rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion xizmat turlarini yaratish konsepsiyasiga asosangan holda iqtisodiyot raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlashga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion agroxizmatlar tizimini shakllantirish ko'p bosqichli va uzluksiz jarayon bo'lib, u bozor ehtiyojlarini aniqlashdan tortib, xizmatlarni joriy etish va doimiy takomillashtirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Birinchi bosqich – bu bozor tahlili va ehtiyojlarni aniqlash bo'lib, unda fermer xo'jaliklari, agroklastlar, qayta ishlash korxonalari va iste'molchilar ehtiyojlari maxsus so'rovnomalar va agroiklim sharoitlari tahlili orqali o'rganiladi. Bu jarayon hududlarning ixtisoslashuvi, mavjud resurslar va bozor talablari asosida innovatsion xizmatlar yo'nalishlarini tanlashga imkon beradi. Ikkinchi bosqich – xizmat turlarini belgilash va tasniflash bo'lib, unda aniqlangan ehtiyojlarga mos ravishda agroIT, texnologik, marketing-logistika, moliyaviy hamda konsalting-ta'lim xizmatlari kabi yo'nalishlar ajratiladi. Masalan, agroIT xizmatlariga raqamli monitoring va sun'iy intellekt asosida hosil prognozi tuzish kirs, texnologik xizmatlarga tomchilatib sug'orish va aqlli issiqxona tizimlari misol bo'la oladi. Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarini aniqlash bosqichi amalga oshiriladi, chunki innovatsion xizmatlarni barqaror rivojlantirish uchun davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari, xususiy sektor investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) hamda startap grantlari kabi manbalardan foydalanish talab qilinadi. To'rtinchi bosqich – infratuzilma yaratish va texnologiyalarni joriy etish bo'lib, bu jarayonda agrotexnoparklar va agroinkubatorlar tashkil etish, xizmat ko'rsatish markazlarini barpo etish, raqamli agroplatformalarni ishga tushirish va texnika yetkazib berish ishlari amalga oshiriladi. Keyingi bosqich – kadrlar tayyorlash va bilim transferi bo'lib, bunda fermerlar, agrotexnik mutaxassislar va menejerlar uchun treninglar, seminarlardan foydalaniladi, xalqaro ekspertlar ishtirokida bilim almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Yakuniy bosqich esa – monitoring, baholash va takomillashtirish bo'lib, unda xizmatlarning samaradorligi hosildorlik, resurs tejalishi, eksport

hajmi kabi indikatorlar asosida baholanadi, yangi texnologiyalar tizimga integratsiya qilinadi. Ushbu bosqichlar ketma-ketligi innovatsion agroxizmatlar tizimining uzluksiz rivojlanishi va bozor talablariga tezkor moslashishini ta'minlaydi.

Innovatsion agroxizmatlarni tashkil etish jarayoni bir nechta tashkiliy-iqtisodiy modellar asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, har bir modelning o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud. Jahon va mahalliy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, eng keng tarqalgan model bu davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelidir. Mazkur yondashuvda davlat infratuzilmani yaratish, dastlabki investitsiya va normativ-huquqiy bazani ta'minlashda ishtirok etsa, xususiy sektor texnologiya, menejment va xizmat ko'rsatish sifatini kafolatlaydi. DXSh modeli moliyaviy yuklamani taqsimlash, investitsiya xavfsizligini oshirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashi bilan ajralib turadi, biroq loyihalarni tayyorlash va kelishish jarayonining uzoq davom etishi uning kamchiligi bo'lishi mumkin. O'zbekistonda so'nggi yillarda "Agroservis markazlari" DXSh asosida tashkil etilib, texnika ijarasi, agroIT monitoring va konsalting xizmatlarini bir majmuada taqdim etmoqda.

1-jadval

Innovatsion agroxizmatlarni shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuni (Sgroi, 2023)

Bosqich	Mazmuni	Asosiy natija
Bozor tahlili va ehtiyojlarni aniqlash	Fermerlar, agroklastlar va bozor talablari tahlili	Xizmatlar yo'nalishlari bo'yicha aniq ehtiyojlar ro'yxati
Xizmat turlarini belgilash	AgroIT, texnologik, marketing-logistika, moliyaviy, konsalting-ta'lim xizmatlari tasnifi	Bozorga mos xizmatlar portfeli
Moliyalashtirish manbalarini aniqlash	Davlat byudjeti, xalqaro moliya, xususiy sektor, DXSh, grantlar	Barqaror moliyaviy ta'minot
Infratuzilma yaratish	Agrotexnoparklar, servis markazlari, agroplatformalar tashkil etish	Xizmatlar ko'rsatish uchun texnik baza
Kadrlar tayyorlash	Treninglar, seminarlarda o'qitish, bilim almashinuvi	Malakali mutaxassislar
Monitoring va takomillashtirish	Samaradorlik indikatorlarini baholash, yangi texnologiyalarni joriy etish	Xizmat sifatining doimiy oshishi

Ikkinchi muhim model — klaster asosidagi xizmat modeli bo'lib, u bir hududdagi fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yagona ishlab chiqarish tizimiga birlashtirishga asoslanadi. Klaster modeli transport va logistika xarajatlarini kamaytirish, resurslardan birgalikda foydalanish hamda bozor bilan bevosita aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ishtirokchilar o'rtasida manfaatlar kelishmovchiligi yuzaga kelishi ehtimoli ham mavjud. Andijon viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari bu modelning amaliy misoli bo'lib, ular o'z ichida texnika, urug'lik, o'g'it yetkazib berish, hosil yig'ish va sotish xizmatlarini integratsiya qilgan.

Uchinchi yondashuv — kooperativ asosidagi xizmat modeli bo'lib, kichik fermer va dehqon xo'jaliklarini birlashtirib, xizmatlarni arzonroq va samaraliroq taqdim etishni nazarda tutadi. Kooperativ modeli resurslardan birgalikda foydalanish, xizmatlar narxini pasaytirish va fermerlar manfaatini birlashtirish imkonini beradi (Navarro, 2024). Biroq moliyaviy resurslarning yetishmasligi hamda boshqaruv sifatining ko'p hollarda a'zolarga bog'liqligi bu modelning asosiy cheklovlaridan biridir. Yevropa mamlakatlarida fermer kooperativlari agroxizmatlar bozorining katta ulushini egallaydi, bu tajriba O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsion xizmat ko'rsatishni samarali boshqarish uchun quyidagi ketma ketlikdagi bosqichlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi mumkin: intellektual tashabbuslar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yangi innovatsion xizmat turlarini yaratish shartlarini tayyorlash-investitsiyalarni taqdim etishni tashkil qilish ekspertiza- infratuzilma obyektlarini yaratish. Har bir bosqichda ularni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan qoidalar talab qilinadi va model bu — raqamli agroplatformalar modelidir. Ushbu model internet asosida ishlovchi maxsus platformalar orqali fermerlarga texnika ijarasi, urug'lik, o'g'it, marketing, moliyalashtirish va logistika xizmatlarini onlayn buyurtma qilish imkonini beradi. Bu yondashuv tezkorlik, hududiy cheklovlarining yo'qligi va xarajatlarni kamaytirish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, internet infratuzilmasiga bog'liqlik va axborot xavfsizligi masalalari muhim cheklovlar sifatida namoyon bo'ladi. Hindistondagi "AgroStar" platformasi bu modelning muvaffaqiyatli namunasi bo'lsa, O'zbekistonda "Agroplatforma" loyihasi sinov bosqichida amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, gibril (integratsiyalashgan) model ham keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv bir nechta tashkil etish usullarini birlashtiradi. Masalan, DXSh asosida qurilgan agrotexnopark ichida klaster tizimi ishlashi va bu tizim raqamli platforma bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Bunday model har bir yondashuvning ijobiy jihatlaridan foydalanish imkonini beradi va bozor talabiga tez moslashish qobiliyatini oshiradi. Biroq boshqaruvning murakkabligi hamda ko'p tomonlama kelishuvlarni talab qilishi uning asosiy cheklovidir.

Shunday qilib, innovatsion agroxizmatlarni tashkil etishda har bir modelning afzallik va cheklovlarini chuqur tahlil qilish, ularni hududning ixtisoslashuvi, iqtisodiy salohiyati va infratuzilma darajasiga moslashtirish zarur. O'zbekiston sharoitida amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir nechta modelni integratsiya qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud. Innovatsion xizmat ko'rsatishni shakllantirish bo'yicha tavsiya etilgan takliflar innovatsion rivojlanishning alohida elementlarini differensiasiyalashni hisobga oladi hamda respublika va hududiy darajada ham qo'llanilishi mumkin, chunki ular iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun nazariy va uslubiy asosga tayanadi. Innovatsion faoliyat subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni, axborot bilan ta'minlash modellari asosida innovatsion xizmat ko'rsatish faoliyatini boshqarish tamoyillari, innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlarida boshqaruvning innovatsion usullari va texnologiyalari ta'sirining samaradorligini baholash usullari hamda raqamli texnologiyalar moliyaviy instrumentlari asosida innovatsion xizmat turlarini yaratish va amalda qo'llash usullari, shuningdek, xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion ishlanma va texnologiyalar transferini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda respublikada xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini ta'minlashda hamda respublikada innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар / Literature / References:

Aghion, P., et al. (2002). *Competition and Innovation: An Inverted U Relationship*. NBER Working Paper, 9269.

Djurayeva, D.D. (2020). *Ways to increase the effectiveness of the use of innovations in the provision of services in the conditions of pandemics*. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, №10, pp. 77–81.

Djurayeva, D.D. (2021). *Scientific and methodological aspects of the formation of an innovative set of services*. *Бухоро давлат университети илмий ахбороти*, №1, Б. 227–238.

Dodgson, M. (2000). *The management of technological innovation: An international and strategic approach*. Oxford University Press.

- Drucker, P. (1986). *Innovation and entrepreneurship: Practice and principles*. London: Pan Books.
- Nelson, R. (2013). *National Innovation Systems: A Comparative Analysis*. Oxford: Oxford University Press.
- Абдусаттарова, Х.М. (2011). *Инновация стратегияси: ўқув қўллама*. Тошкент: ТДИУ. 278 б.
- Абрамов, С. И. (2000). *Инвестирование*. Москва: Центр экономики и маркетинга. 440 с.
- Агарков, А.П., & Голов, Р.С. (2014). *Управление инновационной деятельностью: Учебник для бакалавров*. Москва: Дашков и К. 327 с.
- Алексеев, А.А. (2015). *Инновационный менеджмент: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры*. Москва: Юрайт. 247 с.
- Алексеев, А.А. (2015). *Инновационный менеджмент: учебник*. Москва: Юрайт. 276 с.
- Алексеева, М.Б., & Ветренко, П.П. (2016). *Анализ инновационной деятельности*. Москва: Юрайт. С. 89–91.
- Антонец, В.А., и др. (2009). *Инновационный бизнес: Формирование моделей коммерциализации перспективных разработок*. Москва: Дело. 317 с.
- Аньшин, В.М., и др. (2007). *Инновационный менеджмент. Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития (3-е изд., перераб. и доп.)*. Москва: Дело. 584 с.
- Балабанов, И.Т. (2001). *Инновационный менеджмент*. Санкт-Петербург: Питер. С. 41.
- Борисов, А.Б. (2000). *Большой экономический словарь*. Москва: Книжный мир. С. 185.
- Гимуш, Р.И., & Матмуродов, Ф.М. (2008). *Инновацион менеджмент: Иқтисодиёт олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма*. Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 144 б.
- Джумаходжаев, А. (1999). *Илмий техника маҳсулотлари ва инновация лойиҳаларини тижоратлаштириш жараёнида интеллектуал мулк объектларини халқаро муҳофазалаш ҳамда хорижий лицензиялаш: монография*. Тошкент: Меҳнат. 171б.
- Джураева, Д.Д. (2019). *Инсон потенциали ва инновацион фаолиятни юксалтиришнинг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги роли*. Бухоро давлат университети илмий ахбороти, №4, Б. 309–316.
- Джураева, Д.Д. (2021). *Хизматлар соҳасини ривожлантиришда инновацион салоҳият ва ёндашувларни тадқиқ этишнинг методологик масалалари*. Иқтисодиёт ва таълим, №1, Б. 148–156.
- Джураева, Д.Д. (2021). *Хизматлар соҳасини такомиллаштиришда инновацион фаолиятнинг илмий амалий аҳамияти*. Иқтисодиёт ва Молия, №29 (138), Б. 70–77.
- Друкер, П. (2004). *Задачи менеджмента в XXI веке*. Москва: Вильямс. 272 с.
- Зайнутдинов, Ш.Н. (2006). *Инновационный менеджмент*. Тошкент: Академия. 267 с.
- Зайнутдинов, Ш.Н. (2018). *Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства*. LAP LAMBERT Academic Publishing RU. С. 49.
- Медынский, В.Г. (2002). *Инновационный менеджмент*. Москва: ИНФРА-М. С. 28.
- Отажонов, Ш.И. (2018). *Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқариш самарадорлигини ошириш*. Тошкент: Инновацион технологиялар. 178 б.
- Попов, В.Л. (2009). *Управление инновационными проектами: Учебное пособие*. Москва: ИНФРА-М. С. 11, 337.
- Расулев, А.Ф., & Алимов, Р. (2007). *Стимулирование инновационной активности в экономике. Общество и экономика*, №5–6.
- Фатхутдинов, Р.А. (2004). *Инновационный менеджмент*. Санкт-Петербург: Питер. С. 19.
- Фатхутдинов, Р.Ф. (2016). *Инновационный менеджмент*. Москва.
- Шумпетер, Й. (1982). *Теория экономического развития*. Москва: Прогресс. С. 224.